


Navoiy viloyatida umumiy o'rta ta'lim

2024/2025 o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Navoiy viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **384 tani** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **16 taga**, ya'ni **4,3 % ga** oshgan.



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni (tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025 o'quv yili boshiga viloyatda jami **4 ta** nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **4,0 barobarga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
Navoiy viloyati	384	4
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	29	2
Zarafshon	13	-
G'ozg'on	4	-
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	35	2
Konimex	37	-
Qiziltepa	44	-
Navbahor	38	-
Nurota	54	-
Tomdi	18	-
Uchquduq	19	-
Xatirchi	93	-

2024/2025 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Xatirchi (**93 ta**), Nurota (**54 ta**) va Qiziltepa (**44 ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar G'ozg'on (**4 ta**), Zarafshon (**13 ta**) shaharlari va Tomdi (**18 ta**), Uchquduq (**19 ta**) tumanlarida qayd etilgan.


Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ular Navoiy shahrida (**2 ta**) va Karmana tumanida (**2 ta**) qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Navoiy viloyatida 2020/2021 – 2024/2025 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **12,0 ming kishiga**, ya'ni **6,6 % ga** ko'paygan.



Ushbu davrda qiz bolalar soni **6,7 ming nafarga**, ya'ni **7,5 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **5,3 ming nafarga**, ya'ni **5,6 % ga** oshgan.

O'quvchilar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni, jami	Umumiy soniga nisbatan % da	ulardan:		Umumiy sonidan, % da	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Navoiy viloyati	194,7	100,0	95,5	99,2	49,0	51,0
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	41,9	21,5	19,7	22,2	47,0	53,0
Zarafshon	18,9	9,7	9,3	9,6	49,2	50,8
G'ozg'on	1,5	0,8	0,8	0,7	53,3	46,7
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	23,1	12,0	11,5	11,6	49,8	50,2
Konimex	6,9	3,5	3,5	3,4	50,7	49,3
Qiziltepa	24,4	12,5	12,1	12,3	49,6	50,4
Navbahor	18,9	9,7	9,5	9,4	50,3	49,7
Nurota	14,3	7,3	7,1	7,2	49,7	50,3
Tomdi	2,0	1,0	1,0	1,0	50,0	50,0
Uchquduq	8,4	4,3	4,0	4,4	47,6	52,4
Xatirchi	34,4	17,7	17,0	17,4	49,4	50,6

Viloyatning deyarli barcha shahar va tumanlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **2,0 % ga** ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Navoiy shahrida (**41,9 ming**), Xatirchi (**34,4 ming**) va Qiziltepa tumanlarida (**24,4 ming**) qayd etilgan, eng kami esa G'ozg'on shahriga (**1,5 ming**) va Tomdi tumaniga (**2,0 ming**) to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Navoiy shahrida (o'g'il bolalar – **53,0 %**, qiz bolalar – **47,0 %**), G'ozg'on shahrida (o'g'il bolalar – **46,7 %**, qiz bolalar – **53,3 %**) va Uchquduq tumanida (o'g'il bolalar – **52,4 %**, qiz bolalar – **47,6 %**) bo'lgan, boshqa shahar va tumanlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.

I- sinf o'quvchilari soni

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilarisiz,
2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	I sinf o'quvchilari soni, jami	umumiy soniga nisbatan % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Navoiy viloyati	19,7	100,0	9,4	10,3	47,7	52,3
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	4,0	20,3	1,8	2,2	45,0	55,0
Zarafshon	2,0	10,2	1,0	1,0	50,0	50,0
G'ozg'on	0,2	1,0	0,1	0,1	50,0	50,0
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	2,3	11,7	1,1	1,2	47,8	52,2
Konimex	0,6	3,0	0,3	0,3	50,0	50,0
Qiziltepa	2,5	12,7	1,2	1,3	48,0	52,0
Navbahor	1,9	9,6	0,9	1,0	47,4	52,6
Nurota	1,5	7,6	0,7	0,8	46,7	53,3
Tomdi	0,2	1,0	0,1	0,1	50,0	50,0
Uchquduq	0,9	4,6	0,4	0,5	44,4	55,6
Xatirchi	3,6	18,3	1,8	1,8	50,0	50,0

Navoiy viloyatida birinchi sinf o'quvchilari soni **19,7 ming kishi** bo'lib, ulardan **47,7 %** qiz bolalar, **52,3 %** o'g'il bolalar tashkil etgan. Birinchi sinf o'quvchilarining eng yuqori ulushi Navoiy shahriga (**20,3 %**) va Xatirchi tumaniga (**18,3 %**), eng pasti esa G'ozg'on shahriga (**1,0 %**) va Tomdi tumaniga (**1,0 %**) to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)

[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)

[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[I – IV sinf o'quvchilari soni](#)


[V – IX sinf o'quvchilari soni](#)

[X – XI sinf o'quvchilari soni](#)

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI- sinf bitiruvchilari

2024- yilda Navoiy viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX- sinf bitiruvchilari soni **16,9 ming kishini** tashkil etgan va 2020- yilga nisbatan ularning soni **2,3 ming kishiga**, ya'ni **15,8 % ga** ko'paygan. XI- sinf bitiruvchilari soni esa, aksincha, 2024- yilda 2020- yilga nisbatan **1,2 ming kishiga**, ya'ni **9,0 % ga** kamaygan va **12,1 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI- sinf bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX- sinf bitiruvchilari soni XI- sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX- sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotganini anglatadi.

IX va XI- sinf bitiruvchilari sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
Navoiy viloyati	16,9	12,1
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	3,6	2,6
Zarafshon	1,5	1,0
G'ozg'on	0,1	0,1
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	2,1	1,4
Konimex	0,6	0,3
Qiziltepa	2,1	1,5
Navbahor	1,7	1,1
Nurota	1,3	0,8
Tomdi	0,2	0,1
Uchquduq	0,7	0,4
Xatirchi	3,0	2,8

IX- sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Navoiy shahrida (**3,6 ming**) va Xatirchi tumanida (**3,0 ming**), eng kami esa G'ozg'on shahrida (**0,1 ming**) va Tomdi tumanida (**0,2 ming**) qayd etilgan. XI- sinf bitiruvchilari orasida ham Navoiy shahri (**2,6 ming**) va Xatirchi tumani (**2,8 ming**) yetakchilik qilmoqda, G'ozg'on shahrida (**0,1 ming**) va Tomdi tumanida (**0,1 ming**) esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[IX sinf bitiruvchilari](#)

[XI sinf bitiruvchilari](#)

IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshiga Navoiy viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **21,9 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **1,1 ming kishiga**, ya'ni **5,3 % ga** ko'paygan.



Navoiy viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etgan – **76,3 % (16,7 ming kishi)**, erkaklar esa **23,7 % ni (5,2 ming kishi)** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		Umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Navoiy viloyati	21,9	16,7	5,2	76,3	23,7
<i>shaharlar:</i>					
Navoiy	3,5	3,0	0,5	85,7	14,3
Zarafshon	1,8	1,7	0,1	94,4	5,6
G'ozg'on	0,2	0,1	0,1	50,0	50,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	2,3	2,0	0,3	87,0	13,0
Konimex	1,1	0,8	0,3	72,7	27,3
Qiziltepa	3,2	2,7	0,5	84,4	15,6
Navbahor	2,1	1,6	0,5	76,2	23,8
Nurota	2,0	1,0	1,0	50,0	50,0
Tomdi	0,4	0,3	0,1	75,0	25,0
Uchquduq	0,8	0,7	0,1	87,5	12,5
Xatirchi	4,5	2,8	1,7	62,2	37,8

Eng yuqori ayol-o'qituvchilar ulushi Zarafshon shahriga (**94,4 %**) to'g'ri kelgan, G'ozg'on shahar va Nurota tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**50,0 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Xatirchi tumanida (**4,5 ming kishi**) va Navoiy shahrida (**3,5 ming kishi**) qayd etilgan, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar G'ozg'on shahriga (**0,2 ming kishi**) hamda Tomdi tumaniga (**0,4 ming kishi**) to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'qituvchilar \(o'rindoshlarsiz\) soni](#)

V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishiga, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishiga hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishiga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshirilib, quyidagi uchta bosqich (I – XI sinflar)dan iboratdir: boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar) va o'rta ta'lim (X – XI sinflar).

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1 umumta'lim shakli** "Umumta'lim muassasasining hisoboti" asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ya'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilingan soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich, tayanch o'rta va o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ushbu ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma)lar olgan shaxslar soni.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: Navoiy shahar,
Amir Temur ko'chasi, 4
El. manzil: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-54-98

